



JAHON ADABIYOTIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR OBRAZINING POETIK TALQINI

Maxamadxodjayeva Umida To'raxodjayevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'qituvchi

umidamaxamadxodjaeva@gmail.com

Ahmadqulova Mahliyo Anvar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Talaba

mahliyoahmadqulova42@gmail.com

Abdibositova Fazilat Alisher qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Talaba

fazilatabdibositova@gmail.com


Annotatsiya: Ushbu maqola orqali buyuk shoh va shoir, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va shahsiyati haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin. Maqolada Boburning 40 yillik hayoti davomida boshidan kechirgan voqealari, janglardagi ishtiroki, taxtni saqlab qolish uchun qilgan harakatlari va bu yo'lda boshidan kechirgan qiyinchiliklari, ichki kechinmalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: poetika, badiiy obraz, talqin, badiiy adabiyot, tahlil, insoniylik tuyg'ulari, ruhiyat, qahramonlik, Boburiylar sulolasi.

Аннотация: В данной статье вы можете получить информацию о жизни и личности великого правителя, поэта и полководца Захириддина Мухаммада Бабура. В статье раскрываются события, произошедшие в течение сорока лет его жизни: участие в сражениях, борьба за сохранение трона, трудности и испытания, которые он пережил на этом пути, а также его внутренние переживания и духовный мир.

Ключевые слова: поэтика, художественный образ, интерпретация, художественная литература, анализ, человеческие чувства, духовность, героизм, династия Бабуридов.

Annotation: This article provides information about the life and personality of the great king, poet, and commander Zahiriddin Muhammad Babur. It explores the major events of Babur's forty-year life, his participation in battles, his efforts to preserve the throne, the difficulties and challenges he faced along the way, as well as his inner emotions and spiritual world.





Keywords: *poetics, artistic image, interpretation, fiction, analysis, human feelings, spirituality, heroism, Baburid dynasty.*

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘zlarining o‘chmas izini qoldirgan juda ko‘p adiblar bor, albatta. Ana o‘sha buyuk adiblardan biri mohir tarjimon, tarixshunos, fan va madaniyat arbobi, O‘zbekiston xalq yozuvchi Pirimqul Qodirov bo‘ladi. Shubhasiz, yozuvchining barcha asarlari xalqimizning qalbidan chuqur joy olib ulgurgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, yozuvchining qalamiga mansub “Yulduzli tunlar” asari, nafaqat, o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham eng durdona asarlardan biri sifatida e‘tirof etib kelinadi. Buning isboti sifatida ushbu asarning bir nechta chet tillarga, jumladan, rus, ingliz, qozoq, hind, urdu, turkman, qirg‘iz, Bengal, yapon va turk kabi tillarga tarjima qilinganligidan ham bilimiz mumkin. “Yulduzli tunlar” asari buyuk shoh va shoir hamda Boburiylar sulosasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlab yozilgan tarixiy asar hisoblanadi. Ushbu asar haqida bir qator adiblarimiz, jumladan, G‘.Karimov, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Yoqubov, G‘aybulloh as-Salom, S.Mirvaliyev, A.Kattabekov, U.Normatov, P.Shermuhammedov, N.Xudoyberganov, M.Sattorov, I.G‘afurov, A.Zayniddinova, M.Sultonova, G‘.Murodov, Shiyam Singx va boshqa adabiyotshunoslar o‘z fikrlarini bildirishgan. [1; 5]

“U zardo‘zi ko‘rpachalar to‘shalgan tanobiyga to‘rdagi eshikdan kirib keldi. Sallasi va kamariga qadalgan qimmatbaho gavharlar sham yorug‘ida nafis jilolanardi. Odatdagi ta‘zimlardan so‘ng, ayollar nafaslarini ichlariga yutib, bir lahza jim qoldilar. Podshoh kimni qaysi yoniga taklif qilsa – kimning hurmati qay darajada ekani shu bilan belgilab beriladi. Farg‘ona vodiysiga uch tomondan dushman hujum qilib kelayotgan shu og‘ir vaziyatda Umarshayx mirzo hamma xotinlariga iloji boricha iltifot ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Xotinlari orasida eng yoshi ulug‘i va eng obro‘parasti Fotima Sulton bo‘lganligi uchun Mirzo birinchi bo‘lib uni yuqoriga taklif qildi.” [2; 27]

Hammanizga ma‘lumki, tarixan, Bobur barcha davlat va jamoat ishlarida, shuningdek, oilada ham adolat va tenglik tushunchalariga tayanishni otasidan o‘rgangan. Bunga yaqqol misol tariqasida, yuqorida keltirilgan parchani ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu parchada ko‘rsatilganidek, Umarshayx mirzo qaysi yoniga kimni chaqirishi, o‘sha insonning shoh uchun qanchalik muhim ekanligini anglatadi. Umarshayx mirzoning ayollari orasida eng oqila va suyuklisi Qutlug‘ Nigor xonim bo‘lishiga qaramasdan, birinchi bo‘lib, boshqa xotinlariga nisbatan yoshi katta va mansabparastlikka moyil bo‘lgan Fotima Sulton taklif qilinganligini guvohi bo‘lamiz. Agar bu vaziyatda eng avval Qutlug‘ Nigor xonim taklif qilingan taqdirda, keyinchalik bu oilada ichki nizolarning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lar edi. Bundan kelib chiqadiki, Umarshayx mirzo vaziyatni oldindan ko‘ra olish va uni to‘g‘ri baholay olish qobiliyat egasi.





“Fotima Sultonning ko‘zlari quvonchdan chaq nab ketdi. U podshohning o‘ng tomoniga o‘tmoqchi bo‘lib borayotgan edi. Biroq Umarshayx mirzo unga chap tomonidan joy ko‘rsatdi. Eng mo‘tabar hisoblangan o‘ng tomonga esa Qutlug‘ Nigor xonimni taklif qildi. Xonim – taxt vorisi Zahiriddin Muhammad Boburning onasi edi, uning o‘ng tomonida o‘tirishi adolatdan ekanini kichik xotinlar tan olar edilar.” [3; 28]

O‘sha davr an‘analariga ko‘ra, podshohning o‘ng tomoni eng ko‘p hurmatga sazovor inson uchun atalganligini bildirgan. Fotima Sulton birinchi chaqirilishiga qaramay, Umarshayx mirzo unga chap tomonini ko‘rsatdi, chunki o‘ng tomonga taxt vorisi, Boburning, onasi Qutlug‘ Nigor xonim ko‘proq loyiq edi va buni boshqalar ham tan olar edilar. Otasining xatti-harakatlari Boburning kelajakda adolatparvar shoh bo‘lishi uchun poydevor bo‘lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvi va adabiyotda tutgan o‘rni nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyotshunoslari tomonidan o‘rganilib kelingan va hozirgacha ham katta qiziqishga ega. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodi Annette Beveridge, William Erskine, Edward Granville Browne, Vasily Bartold, Jules Darmesteter va Stephen Frederic Dale kabi jahonga mashhur olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgani Boburning nafaqat Sharq, balki butun insoniyat madaniy merosidagi beqiyos o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Xususan, Javoharlar’l Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” asarida Bobur shaxsiyatiga alohida to‘xtalib, uni go‘zallikni, san‘atni va adabiyotni kuchli sevuvchi nozikqalb inson deya ta’riflaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning tarix, adabiyot, din va harbiy ish sohalarida sermahsul ijodkor ekanligini uning “Boburnoma”, “Devon”, “Mubayyin”, harbiy san‘atga oid risolalari va “Aruz risolasi” kabi asarlarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Boburning qanday shaxs bo‘lganini quyida keltirilgan parcha yanada ochib beradi: [4]

“Ey farzand! Hinduston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi, senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo‘lg in. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hinduston xalqining qalb ardog‘i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog‘lanadi. Podshoh farmoniga bo‘ysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo‘ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdir. Zulm tig‘i bilan emas.” [5]

Ushbu parcha Zahiriddin Muhammad Boburning o‘g‘li Humoyunga atab yozilgan “Vasiyatnoma” bo‘lib, unda keltirilishicha, odil podshoh davlatni zulm bilan emas, aksincha, saxovat bilan boshqarmog‘i lozim. Bundan tashqari, ushbu parcha hozirda mavjud bo‘lgan “diniy bag‘rikenglik”, “tolerantlik” kabi tushunchalar o‘sha davrda ham mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Yana shuni aytib o‘tish joizki, Bobur bu so‘zlari orqali farzandiga podshohning kuchi zo‘ravonlik bilan emas, balki xalq roziligi va adolati boshqaruv bilan namoyon bo‘lishini uqtirmoqchi bo‘lgan.





Zahiriddin Muhammad Bobur shoir sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida she'riyatni hayotiy tajriba, falsafiy mushohada hamda samimiy kechinmalar bilan boyitgan. Quyida keltirilgan ruboiyda shuni guvohi bo'lamizki, Bobur uchun o'z yurtidan ketish, vatan sog'inchi bilan yashash hayoti davomidagi eng og'ir damlari bo'lgan va uni yana bir bor bo'lsada o'z diyorida bo'lish istagi hech qachon tark etmagan.

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi. [6]

Shu bilan birga, shoir inson qalbining nozik holatlarini chuqur tahlil qilib, hayotiy qiyinchiliklar qarshisida bandaning ojizligini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bobur faqatgina odil podshoh bo'libgina qolmay, adabiyotda ham sermahsul ijodkor bo'lgan. Shuning uchun u nafaqat tarixchilar, baliki jahonning eng mashhur adabiyotchilarining ham e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan misollar buning yaqqol dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nosirov A.N. "Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini ("Yulduzli tunlar" romani misolida)": diss...filol.fanlari nomzodi, Toshkent, 2008, 5-bet;
2. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent:. – Yangi asr avlodi, 2015. – 27 b.
3. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent:. – Yangi asr avlodi, 2015. – 28 b.
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/boburshoh-shoir-va-adib>
5. <https://baburid.uz/bibliography/>
6. <https://www.ziyouz.com/kutubxona>

